
RASMIY MUNOSABAT

Ijtimoiy tarmoqlarda Farg'ona shahridagi "Hamkorlik" mahalla fuqarolar yig'ini Marg'ilon ko'chasi 64-uyda yashovchi aholi vakillari tomonidan to'rt qavatli uyning tom qismidan yomg'ir suvini tushish moslamalari nosozligi, yo'laklarni ta'mirlash bo'yicha qilingan video murojaat tarqaldi.

Mazkur murojaat Farg'ona shahar hokimligi va "Farg'ona adolat kommunalchi plyus" boshqaruv servis kompaniyasi tomonidan o'rganildi. Aniqlangan muammo boshqaruv servis kompaniyasi xodimlari tomonidan bartaraf etildi. Yaroqsiz holga kelgan yomg'ir suvi tushuvchi moslamalar olinib, yangilariga almashtirildi. Shuningdek, ichki yo'llarni ta'mirlash ishlarini olib borish ham belgilandi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2023-05-02 16:51:08